



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



ALISHER NAVOIY IJODIDA SIYOSIY-HUQUQIY, MA'NAVIY- MA'RIFIY QARASHLAR

Fazilat Xolmuminovna Qosimova

Toshkent davlat yuridik universiteti
huzuridagi akademik litsey Tillar
kafedrasi katta o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15378934>

Annotatsiya. Alisher Navoiy – o'zbek adabiyoti va ma'naviy-ma'rifiy tafakkurining zabardast namoyandasi bo'lib, uning ijodida siyosiy-huquqiy, ma'naviy va axloqiy qarashlar chuqur ifodalangan. Shoir adolatli boshqaruv, shoh va raiyat o'rtasidagi mas'uliyat, qonun ustuvorligi, ideal davlat haqidagi qarashlarini o'z asarlarida yuksak badiiy saviyada bayon qilgan. Ayniqsa, "Saddi Iskandariy" dostoni orqali Alisher Navoiy ijtimoiy-siyosiy va huquqiy g'oyalarni keng yoritgan. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning badiiy, tarixiy va falsafiy asarlaridagi siyosiy-huquqiy va ma'naviy qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, siyosiy qarashlar, huquqiy tafakkur, ma'naviyat, adolatli boshqaruv, ideal davlat.

Аннотация. Алишер Навои — выдающийся представитель узбекской литературы и духовно-просветительской мысли, в творчестве которого глубоко отражены политико-правовые, нравственные и духовные взгляды. В своих произведениях он высокохудожественно раскрывает идеи справедливого управления, ответственности правителя перед народом, верховенства закона и концепции идеального государства. Особенно в поэме «Садди Искандарий» Навои широко освещает социально-политические и правовые идеи. В данной статье анализируются политико-правовые и духовные взгляды, представленные в художественных, исторических и философских произведениях Алишера Навои.

Ключевые слова: Алишер Навои, политические взгляды, правовое мышление, духовность, справедливое управление, идеальное государство.

Annotation. Alisher Navoi is a prominent figure in Uzbek literature and spiritual-intellectual thought, whose works deeply reflect political, legal, and moral-ethical perspectives. In his writings, he poetically presents ideas of just governance, the ruler's responsibility to the people, the rule of law, and the vision of an ideal state. Notably, in the poem "Saddi Iskandariy," Navoi extensively explores socio-political and legal themes. This article analyzes the political-legal and moral viewpoints expressed in Alisher Navoi's literary, historical, and philosophical works.

Key words: Alisher Navoi, political views, legal thought, spirituality, just governance, ideal state.

KIRISH

G'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy o'zbek adabiyotini jahon miqyosiga ko'targan va bashariyatning ma'naviy-axloqiy hamda huquqiy madaniyatini yuqori cho'qqilarga ko'targan buyuk davlat arbobidir. U o'zidan keyingi avlodlarga beqiyos



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



va ulkan adabiy meros qoldirish bilan birga o'zbek (turkiy) tilining qadr topishiga sababchi bo'ldi.

Alisher Navoiyning ijodida, ya'ni – badiiy, tarixiy, ilmiy-falsafiy asarlarida insonning ma'naviy olami, tafakkuri va kamoloti uchun mo'jizakor kuchga ega bo'lgan go'zallik va nafis san'atning o'rni beqiyos ekanligi bilan birgalikda ideal davlatni va unda xalqning manfaatlarini ko'zlovchi qonunlar ustuvor bo'lishini hamda adolatli shohning mamlakatni boshqaruvi haqidagi ijtimoiy-siyosiy, davlatchilik va huquq sohasidagi istak va orzulariga, g'oyalariga guvoh bo'lamiz.

Navoiy do'sti Husayn Boyqaro arkoni davlatida vazirlik vazifasini o'tash yillarida birinchi navbatda mamlakat ichida tinchlikni ta'minlash, viloyatlarni o'g'rilardan, bosqinchilardan qo'riqlash, xalqning bilim saviyasini oshirish uchun madrasalar, kutubxonalar barpo qilish, ko'priklar va rabotlar qurishga bel bog'ladi. U yashagan davrda Hirotda hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan, adabiyot, san'at, me'morchilik kehg rivoj topdi. Masalan, "Ixlosiya", "Shifo'iya", "Nizomiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, Marvdagi "Xusraviya" madrasasi.

Shoir o'zi yashab ijod qilgan "Unsiya" da tashkil etilgan juda katta kutubxonani misol qilsak bo'ladi. Bu madrasalarda yuzlab kishilar tarbiyalanib, ilm olganlar. Ularning ba'zilariga pul ham to'langan ekan.

Navoiy o'zining siyosiy qarashlarida shohni bog'bonga, cho'ponga o'xshatgan bo'lsa, ommani, mamlakatni bog'ga o'xshatadi:

Bunda raiyat galavu sen shubon,
Ul shajaru musmiru sen bog'bon.
Qo'yni shubon asramasa oyu yil,
Och bo'rilar ta'masidur, bori bil.

Ya'niki, adolatli shohga qarata shunday deydi: - "Oddiy xalq bog' bo'lsa, sen bog'bon bo'lib, agar ular qo'ylar podasi bo'lsa, sen cho'pon bo'lib xalqingni qo'riqlagin, toki och bo'rilar kelib, ularni talamasin". Aynan shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz lozimki, asosiy qonunimiz - Konstitutsiyamizning 2-moddasidagi qoidalar, ya'ni - "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi" yoki 7-moddada mustahkamlanganidek, - "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir" kabi me'yorlar o'zbek xalqining tarixiy tajribasiga tayanib belgilangan.

Shoir siyosat, davlat qonunlariga oid maxsus asarlar yozib, Turonda siyosiy huquqiy ta'limotlarning rivojlanishini yangi bosqichga ko'taradi. Uning "Tarixi muluki Ajam" asarida qadimgi Eron va Turon zaminida davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi aks etgan. Navoiy Ajamda Odam Atodan to O'rta asrlargacha bo'lgan



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



katta tarixiy davrda hukmronlik qilgan 65 dan ortiq shohlarning hayoti haqida hikoya qiladi.

Navoiy dunyoqarashida kelajakda ideal davlat orzusi muhim o'rin tutadi. Uning hayolidagi davlat – “Saddi Iskandariy” dostonida aks ettirilgan bo'lib, bunda shoir bolajak ideal davlat siyosati, davlat, davlatni idora qilish shakli, davlatni boshqarishda fan va texnikaning ahamiyati, xalqaro huquqqa oid masalalar, urush tinchlik kabi murakkab siyosiy vazivatlarni ta'riflaydi. U jamiyatni davlatsiz, qonun ustuvorligisiz, shohsiz tasavvur qila olmaydi.

Ayo, toki shohsiz chu bo'lgay jahon,
Zamon ahliga bo'lmag "usi omon".

deya Navoiy markazlashgan, mustahkam intizomga asoslashgan davlatni, uning tepasiga esa ma'rifatparvar shoh bo'lishini orzu qiladi. Navoiyning fikricha, kelajakda butun dunyoda adolatsiz davlatlar tugatilab, ularning o'rmida markazlashgan davlat tashkil topishi, uning tepasida Iskandarga o'xshagan shaxs turishi kerak. Xalqqa, elga xizmat qilish g'oyasi shoir insonparvarligining asosini tashkil etibgina qolmay, u shohlarni, mansabdor shaxslarni, umuman kishilarni el-yurtga xiyonat, jabr-zulm qilmaslikka chaqiradi. Xalq nafratiga duchor bo'lgan, ommadan ajrab qolgan, jamoa orasida yomon nom chiqargan kishi o'zi ham shunday yomonlikka duchor bo'libgina qolmay, eng yomon, eng badbaxt kishi hisoblanadi.

Odamiy ersang- demagil odamiy,
Oningkim-yo 'q xalq g'amidin g'ami.

Alisher Navoiy kishilarni bir-birlariga nisbatan shirinso'z, xushmuomalada bo'lishga chaqiradi. Xushmuomalalik, mayin so'zlar insonning chehrasini ochib, xursand qilsa, qo'pol va qattiq so'zlar, aksincha, kishining ta bini xira qilib, ko'ngillarga ozor beradi, deya ularni tanqid qilib dilozorlar deb ataydi.

So'zdurki, nishon erur o'likka jondin,
So'zdurki, xabar berur jonga jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin
Bilkim, guhari-sharifroq yo'q ondin.

Navoiyni o'rganar ekanmiz, uning ijodida insonning ma'naviy olami, uning kamoloti, ulug'likka erishishi va jamiyatda qanday asoslarga ko'ra o'z o'rnini belgilab olish lozimligi haqidagi ko'plab fikrlarga duch kelamiz. Yurtboshimizning 2008-yilda chop etilgan “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch” asarida Alisher Navoiy haqida quyidagicha iliq so'zlar bitilgan: - “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil qilgan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



dunyoga tanitgan o'lmas so'z san'atkoridir. Olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biror-bir inson yo'qki, Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadogat va e'tiqod bilan qaramasa.

“Agar biz ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning aliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.

XULOSA

Darhaqiqat, biz bunday ma'naviy meroslarimizga hurmat bilan qarab, ularni o'rganib, ayniqsa yosh avlod ongiga, ularning ma'naviy tafakkuriga yetkazib bersak, aminmanki, hozirgi globallashuv jarayonlarida yuzaga kelayotgan ma'naviy tahdidlar, mafkuraviv tazyiqlar bizga chang sola olmaydi. Buning uchun bizdan doimo hushyorlik, jonkuyarlik, tarixiy ma'naviy merosimizni sevish, ulardan bahramand bo'lish, yuksak aql-idrok va tafakkur talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U Normuhammad. Biografik Asarlar Tarixi Yoxud Moziyga Bir Nazar. Miasto Przyszłości 55, 279-280, 2024.
2. M Ubaydullaeva, Ö Semerkant. Türk halklarının edebiyat arařtırmalarının gelişim tarihi.
3. U Normuhammad. A look at the history of biographical works or mozes. International Journal of Pedagogics 4 (12), 232-234, 2024.
4. N Ubaydullayev. Memuar asar tahlili. International conference on interdisciplinary science 1 (10), 268-273, 2024.
5. UM Azamatovna. The history of the development of the terms of literary studies of the turkic peoples.
6. Zulhumor, X. O. L. M. A. N. O. V. A. (2017). Babür'ün Özbek Dilbilimini Geliřtirmedeki Büyük Hizmetleri. Journal of Modern Turkish Studies, 14(1), 85.
7. Bilveren, T. (2015). Babürnâmedeki bazı kelimelerin tarihî ve etimolojik tahlili. Kilis 7 Aralık Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 5(9), 114-118.
8. Zulfumor, X. (2023). Bobur–semantikaning sohir bilimdoni. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).
9. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O 'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.
10. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023). Bilingvizm turlari va ikkinchi til leksik bazasi. In international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
11. Xolmanova, Z., Saidaxmedova, O., & Nurullayeva, O. (2018). Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. Toshkent: Navro 'z, 41-49.
12. Bakhronova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations.



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



13. Saodat, I. Ko 'k' leksemasining etimologik tavsifi. O 'zbekiston, 75.
14. Xolmanova, Z. (2022). Omonimlar–tafakkur omili. Uzbekistan: Language and Culture, 1(1).
15. Israilova, S. (2022). "Ko 'k' leksemasi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
16. NX Ubaydullayev. The depiction of the image of a creative person in autobiographical inscriptions. Current research journal of philological sciences 2 (07), 36-39, 2021.
17. Jumayeva, M. B. (2025). Use of educational methods in pedagogy. Икро журнал, 14(02), 168-174.
18. Xolmanova, Z. Eski o 'zbek tiliga xos ayrim leksemalar semantikasi va lingvokulturologik xususiyatlari. O'zbekist, 38.
19. Sempo, Y. E., & Kitabi, B. (2017). Uluslararası Türk Dünyası. 7. Michael McCarthy and Felicity O'Dell." English Idioms in Use"–Cambridge university press.
20. Xolmanova, Z. (2023). Sun'iy Intellekt: Boris. Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects, 1(1).
21. Turdiyevna, K. Z., & Tursunalievna, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. International Journal of Language Learning And Applied Linguistics, 2(5), 63-67.
22. Ruzimovna, K. G., & Xolmanova, Z. Formation and Development of Axiolinguistics. International Journal on Integrated Education, 3(9), 128-131.
23. Sh, R., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O'razova, I., & Rixsiyeva, K. (2022). O 'zbek tilining frazeologik lug 'ati. Toshkent: G 'G 'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 458.
24. Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 488-497.
25. Turdiyevna, K. Z., & Ruzimovna, K. G. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1430-1434.